

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

R.To'rayev

2024 yil

Ro'yxatga olingan MD70230104-1.09

2024-yil

BADIIY MATN POETIKASI fani

O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Mutaxassisligi:** 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Toshkent-2024

Fan/modul kodi BMP206	Fan/modul turi tanlov		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2024/2025	
Har bir semestrda fan/modulning nomi	Semestr	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	Auditoriya mashg'ulot ari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Badiiy matn poetikasi	2	6	6	90	90	180
<b>Jami:</b>		<b>6</b>	<b>6</b>	<b>90</b>	<b>90</b>	<b>180</b>

2.

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga mumtoz poetika asoslari haqida ma'lumot beradi, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, o'zbek adabiyotining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari, xususiyatlari, yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, obrazlarning yangilanish qonuniyatlari, taraqqiyot omillaridan ta'lim beradi. Yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, badiiy matn poetikasi haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Fanni o'qitishning vazifasi – magistrantlar o'zbek adabiyotining tarixiy rivojlanish qonuniyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, mumtoz adabiyoti tarixi va bu davrda yashab ijod qilgan adiblarning ijodiy faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish, mumtoz matn bilan ishlash, nazm, nasr qonuniyatlari va mumtoz asami o'qish va o'zlashtirish va tahlil qila olish masalalari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Badiiy matn poetikasi" faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari; Balog'at ilmi asoslari: Ilmi bayon, ilmi maoniy, ilmi bade'

Fanning maqsad va vazifalari tushuntiriladi. Balog'at ilmining shakllanish va turlari haqida ma'lumot beriladi.

2-mavzu. Mumtoz adabiyotda badiiy so'z tabiati. Shakl va mazmun mutanosibligi

Badiiy matn poetikasida shakl va mazmun mutanosibligi. Masalaning mumtoz ilmda talqin etilish tarixi.

### **3-mavzu. Mif poetikasi. Mifologiya va yozma adabiyot**

Turkiy xalqlar mifologiyasining vujudga kelishi. Mifik tafakkur, arxaik miflar, ilk yozma namunalar badiiy matn poetikasining obyekt sifatida.

#### **4-mavzu. Turkiy poetika**

Turkiy poetika haqida qarashlar, ilk turkiy adabiy manbalarda poetika masalalari, islomgacha bo'lgan davrda turkiy poetika.

#### **5-mavzu. She'r tuzilishi. Aruz ilmi**

Mumtoz she'r. Ilmlar uchligi. Ilmi aruz va uning badiiy matn poetikasida o'rni. Aruz ilmiga oid nazariy manbalar.

#### **6-mavzu. She'riy janrlar va ularning matn poetikasidagi maqomi masalasi**

Mumtoz she'riy janrlar tarixi. Ularning matn poetikasidagi o'rni masalasi tushuntiriladi. Poetik obrazlardagi yangilanish.

#### **7-mavzu. Matn poetikasi shakllanishida badiiy san'atlarning o'rni.**

Badiiy matn poetikasida badiiy san'atlarning o'rni mumtoz adabiyot namunalari asosida o'rganiladi.

#### **8-mavzu. Badiiy asar takomilida qofiya va radifning vazifalari**

Mumtoz qofiya ilmi nazariyasi haqida ma'lumot beriladi. Matn namunalari tahlil etiladi.

#### **9-mavzu. Debochalar va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o'rni**

Debochalarning shakllanish tarixi, ularning ilmiy-nazariy qarashlar tarixida tutgan o'rni talqin etiladi.

#### **10-mavzu. Badiiy matnda timsollar tizimining tahlili**

Badiiy matnda timsollarning o'rni. Obraz va timsol munosabati.

#### **11-mavzu. Ramziy obrazlar poetikasi**

Ramz va obraz munosabati. Jahon adabiyotida mazkur masalaning o'rganilish tarixi

#### **12-mavzu. Mumtoz poetika masalalarida an'anaviylik va izdoshlik**

Badiiy adabiyotda an'anaviylik va novatorlik masalasi. Uning jahon adabiyotida o'rganilishi. Masala mumtoz shoirlar asarlari vositasida o'rganiladi.

#### **13-mavzu. Mumtoz adabiyotda kichik lirik janrlar tabiati**

Mumtoz adabiyotda kichik lirik janrlar o'rni. Ruboiy, tuyuq, fard va ularning genezisi. Mumtoz shoirlar ijodidan namunalar tahlili.

**14-mavzu. Germenevtik, qiyosiy-tarixiy, tahliliy-komponental, tipologik tahlil turlari**

Germenevtik, qiyosiy-tarixiy, tahliliy-komponental, tipologik tahlil turlari haqida ma'lumot berilib, farqli jihatlari aniqlanadi.

**15-mavzu. Uslub tushunchasi. Badiiy matn poetikasida ijodkor uslubining o'rni**

Uslub haqida tushuncha. Adabiyotshunoslikda uslub masalasining o'rganilish tarixi. Fitratning fikrlari. Tasniflari. Badiiy matn poetikasida ijodkor uslubining o'rni.

#### **16-mavzu. Mumtoz poetikada badiiy nutq**

Mumtoz poetikada badiiy nutq masalasi. Uning o'rganilish tarixi. Mumtoz adabiyot namunalari misolida talqin qilish.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar** *amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. "Badiiy matn poetikasi" faniga kirish. Balog'at ilmi asoslari: Ilmi bayon, ilmi maoniy, ilmi bade'.
2. Navoiy va Boburning shakl va mazmun mutanosibligi borasidagi ilmiy va amaliy qarashlari.
3. Mumtoz shoirlar ijodi misolida matn poetikasida badiiy san'atlarning o'mi va vazifasini aniqlash (Bobur, Uvaysiy.....)
4. Qadimgi turkiy yodgorliklarning formal-poetik xususiyatlarini o'rganish.
5. Alisher Navoiy va Boburning aruzshunoslikka qo'shgan hissasi..
6. Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Mineralogiya" asarlaridagi rivoyat, afsona, va hikoyatlar tahlili
7. Mumtoz she'riyatda ranglar poetikasi.
8. Mumtoz she'riyatda an'ana va yangilanish masalasi
9. Mumtoz adabiyotda badiiy nutq va uslub masalalari
10. Devon debochalarining poetik ahamiyati
11. Gulxaniy "Zarbulmasal"ida istiora va irsoli masal san'atining o'mi va vazifalarini aniqlash.
12. Mumtoz tarixiy poetikada "Funun ul-balog'a" va "Badoyi' us- sanoyi'" asarlarining o'mi.
13. Mumtoz adabiyotshunoslikka oid asarlarda janrlarga munosabat. Qofiya va radifning o'rganilish tarixi ("Funun ul-balog'a", "Badoyi' us-sanoyi'" "Muxtasar", "Mezon ul-avzon" asosida).
14. Badiiy matnda janrlar tabiati. Boburning kichik lirik janrlardagi o'ziga xos uslub xususiyatlarini belgilash.
15. Amiriy she'riyati poetikasini o'rganish. Uvaysiy she'riyatida qofiya va radif poetikasi.
16. Badiiy matni germenevtik va qiyosiy-tarixiy tahlil etish usullarini o'zlashtirish va amalda qo'llash (mumtoz matnlar asosida).

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

#### *Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. B. Sarimsoqovning "Badiiylik mezonlari va asoslari" asarini o'rganish.
2. Farida Karimovanning "O'zbek adabiyotida debocha" asarini o'rganish.
3. A.N. Veselovskiyning "Istoricheskaya poetika" kitobidan "Iz istorii epiteta" maqolasini tarjima qilish.
4. Kudelin. "Мотив в традиционной арабской поэтике VIII—X вв." maqolasini o'rganish.



	<p>5. Abdurahmon Jomiyning “Risolai qofiya” asarini o‘qib o‘rganish</p> <p>6. Shayx Ahmad Taroziyning “Fununul-balog‘a” asarini o‘qish</p> <p>7. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mezon ul-avzon» asarlarini o‘qib, o‘rganish.</p> <p>8. Atouullo Husayniyning «Badoyi‘us-sanoyi‘) asarini o‘qib, o‘rganish.</p> <p>9. Boburning «Muxtasar» asarini o‘qib o‘rganish.</p> <p>10. Fitratning «Adabiyot qoidalari» asarlarini o‘qib o‘rganish</p> <p>11. O‘zbek mumtoz adabiyotida doston janrining o‘rni va taraqqiyot bosqichlarini nazariy jihatdan belgilash</p> <p>12. I.V. Steblevaning “Razvitie tyurkskix poeticheskix form v XI veke” kitobini o‘rganish</p> <p>13. Tarixiy asarlarni adabiy manba sifatida o‘rganish tamoyillarini aniqlash (“Firdavs ul-iqbol” misolida)</p> <p>14. Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asarini o‘qish</p> <p>Umar Roduyoniyning “Tarjumonul-balog‘a” asarini o‘qish</p> <p><i>Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish.</li> <li>2. Turkiy poetikaga oid manbalar hamda arab, fors manbalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish.</li> <li>3. Mumtoz adabiyot namunalari bo‘yicha berilgan asarlar ma‘lumotlarini tasnif qilish.</li> <li>4. Berilgan manbalarni tarjima qilish.</li> <li>5. Mumtoz adabiyotshunoslik namunalari taqriz yozish</li> <li>6. Anjumanga tezis tayyorlash</li> </ol>
3.	<p><b>V. Ta‘lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- “Badiiy matn poetikasi” fani bo‘yicha o‘zbek mumtoz badiiy matnlarining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o‘rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, badiiy matn poetikasida qofiya va badiiy obrazlarning o‘rni tog‘risida <b><i>bilimga</i></b>;</li> <li>- badiiy matnlarni tarixiylik nuqtayi nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko‘nikmasini shakllantirish, o‘zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalari tarixiy poetika masalalari bilan aloqadorlikda o‘rganishga kirishish ko‘nikmasiga <b><i>ko‘nikmasiga</i></b>;</li> <li>- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida, akademik litsey va professional ta‘lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nailishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish <b>kasbiy kompetensiyalariga</b> ega bo‘ladi.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma‘ruzalar;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan "Badiiy matn poetikasi" fanidan 2-semestrda 180 soat <i>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</i>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <i>ijobiy baholanib, kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</i> talabaga 2-semestrda <b>6 kredit beriladi.</b></p> <p>Talaba belgilangan <i>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</i></p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> - talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi hamda fan haqida tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sharq mumtoz poetikasi (tuzuvchi H.Boltaboyev). – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2008.</li> <li>2. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.</li> <li>3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-2 jild. – Toshkent: Fan, 2005, 2007.</li> <li>4. Sarimsoqov B. Badiiylik mezonlari va asoslari. –T.,2000.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p>

1. Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. –Toshkent. Innovatsiya-Ziyo, 2022.
2. I. Adizova. Bobur tafakkurida mavjlangan daryo. Monografiya. – Toshkent. 2023.
3. I. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, O'quv qo'llanma. - T., Fan, 2009.
4. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – Moskva: Vsshaya shkola, 1989.
5. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
6. Jirmunskiy V.M. Teoriya literature. Poetika, Stilistika, L.: Nauka, 1977.
7. Xolmo'minov J., Hazratqulov J. Forsiy adabiyotning jahon adabiyotidagi o'rn. Toshkent. “YANGI ASR”, 2012.
8. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. – T.: Adolat, 2004.
9. Mamajonov Z. Mumtoz she'riy san'atlarining nazariy tasnifi. –T.: Akademnashr, 2016.
10. Rahmonov N, O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. –T.: MUMTOZ SO'Z 2016.
11. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.: «Sharq», 1999.
12. Бахтин. М.М. Литературно-критические статьи. –М.: «Художественная литература», 1986.
13. Fitrat. Adabiyot qoidalari. –T.: «O'qituvchi», 1995.
14. F. Karimova. O'zbek adabiyotida debocha. –Toshkent.

#### Axborot manbalari

1. <http://www.kutubxona.uz>
2. <http://www.literature.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.alishernavoiy.uz>

7. Fan dasturi Universitet Kengashning 2024-yil 30.08dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun ma'sullar:**

Egamqulova N. – Termiz davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

9. **Taqrizchilar:**

Adizova I. – ToshDO'TAU, “O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori

Murtazoyev B. – Termiz davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi